



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 18-avgust

VII-13-95-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

### **“Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-17-sonli Farmonining 9-bandi hamda Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi va «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazining “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida O‘zaro kelishuvi va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025 yil 14 avgustdagi 02/02-38-575-sonli xatiga asosan va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining yettinchi chaqiriq o‘n uchinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. 2025 yil 14-avgustdagi Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari–Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Zavqiyev) va «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazi (N.Jo‘rayev)ning “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida O‘zaro kelishuvi va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 14-avgustdagi 02/02-38-575-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **1 798 800,0** (bir mlrd yetti yuz to‘qson sakkiz mln sakkiz yuz) **ming so‘m mablag‘** ilovaga asosan yo‘naltirilsin.

3. “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman tashkilotlari (Rahbarlari)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga ajratilgan mablag‘larni ishlatilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (N.Vasiyev)ga mablag‘larni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budjet mablag‘larining to‘g‘ri va maqsadli xarajatga chiqarilishini ta’minlash bo‘yicha shaxsiy javobgarlik mas’uliyati yuklatilsin.

5. Mazkur Qaror ijrosi xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari M.Zavqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani  
Kengashining  
2025-yil 18-avgustdagi

1-ilova

**“Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladigan  
tadbirlar uchun yo'naltiriladigan mablag'lar miqdori**

(ming. so'm)

| T/r | Tashkilot nomi    | Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi                                                                                                                      | Mablag' miqdori | Asos                                                                                                                                                                                 |
|-----|-------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|     |                   | Jami:                                                                                                                                                    | 1 798 800,0     | (Bir mlrd yetti yuz to'qson sakkiz million sakkiz yuz ming)                                                                                                                          |
| 1   | Tuman hokimligiga | PQ-1 sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tumandagi ko'p qavatli turar-joy binolari kirish eshiklariga 10 dona domofon o'rnatish uchun             | 40 000,0        | tuman hokimi o'rinbosari M.Zavqiyevning 2025-yil 14 avgustdagi 02-02/1059-sonli xati va Iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda Inson ijtimoiy xizmatlar markazlarining o'zaro kelishuvi |
| 2   |                   | PQ-1 sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida mahalla markazlarida piyodalar yo'lagi qurish uchun sement mahsuloti sotib olishga                       | 75 000,0        |                                                                                                                                                                                      |
| 3   |                   | Yakkabog', Tarnov va Jumaboy mahallari markazlarida “Workout” maydonchalari tashkil etish uchun                                                          | 75 000,0        |                                                                                                                                                                                      |
| 4   |                   | Qoqsoy MFY dagi “Mening bog'im” loyihasi yuzasidan barpo etilayotgan bog'da sug'orish tizimini joriy qilish uchun 50 kub.m hovuz va tarmoq tortish uchun | 285 000,0       |                                                                                                                                                                                      |
| 5   |                   | tumandagi umumta'lim maktablari oldida sun'iy notekisliklar o'rnatish uchun 100 tonna asfalt sotib olishga                                               | 58 000,0        |                                                                                                                                                                                      |
| 6   |                   | tuman markazidagi 700 metr piyodalar yo'lagini ta'mirlash uchun                                                                                          | 315 000,0       |                                                                                                                                                                                      |
| 7   |                   | tuman markazidagi chorrahalarda ko'zi ojizlarga qulaylik yaratish maqsadida ovozli uskuna o'rnatish uchun                                                | 50 000,0        |                                                                                                                                                                                      |
| 8   |                   | Mundiyon MFY dagi 180 metr ichki ko'chani ta'mirlash maqsadida 120 tonna asfalt sotib olishga                                                            | 68 000,0        |                                                                                                                                                                                      |

| T/r | Tashkilot nomi    | Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | Mablag' miqdori | Asos                                                                                                                                                                                 |
|-----|-------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|     |                   | Jami:                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | 1 798 800,0     | (Bir mlrd yetti yuz to'qson sakkiz million sakkiz yuz ming)                                                                                                                          |
| 9   |                   | D081 Kattaqo'rg'on Payshanba (eski nomi 4-R-243) avtomobil yo'lini ta'mirlash uchun 220 tonna asfalt sotib olishga                                                                                                                                                                                                                                             | 127 600,0       |                                                                                                                                                                                      |
| 10  | Tuman hokimligiga | PQ-1 sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tumandagi 39 ta umumta'lim maktablariga kuzatuv kameralari o'rnatish uchun                                                                                                                                                                                                                                     | 302 200,0       | tuman hokimi o'rinbosari M.Zavqiyevning 2025-yil 14 avgustdagi 02-02/1059-sonli xati va Iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda Inson ijtimoiy xizmatlar markazlarining o'zaro kelishuvi |
| 11  |                   | 20 ta umumta'lim maktablarida ma'naviyat targ'ibot burchagi tashkil qilish uchun                                                                                                                                                                                                                                                                               | 150 000,0       |                                                                                                                                                                                      |
| 12  |                   | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12 oktyabrdagi 638-sonli qaroriga asosan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishini ta'minlash uchun tumandagi 11 ta umumta'lim maktablariga | 253 000,0       |                                                                                                                                                                                      |